



FAOLIYATLI YONDASHUV ASOSIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

Navoiy davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchi va dotset

Feruza Xamidova Turdiyevna

Suyarova Durdona Shavkat qizi

Pedagogika va psixologiya 4-kurs "B" guruh

Anotatsiya: Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi tobora davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zero, istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda sog'lom dunyoqarashli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashning ahamiyati. Har qaysi xalq yoki millatning tarixini, ularning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi faoliyatlarini shu xalqning tarixi, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarini, hayotiy qadriyatlarini. Sharq allomalarning komil inson tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari

Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi tobora davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zero, istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda sog'lom dunyoqarashli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida turli ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, ular yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida 4-bandi ijtimoiy sohalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qismida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish qismlarida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim ekanligini aytib o'tganlar. Yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish masalasi har bir davr va jamiyatga



xos bo'lib, bunda davlat va jamiyat oldida ma'naviyatni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil etib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini ilmiy tahlil etish lozim. Har qaysi xalq yoki millatning tarixini, ularning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi faoliyatlarini shu xalqning tarixi, o'ziga xos urf-odatlar, an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Sharq allomalarning komil inson tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari bilan tanishamiz. Sharq falsafiy tafakkuri tarixida komil insonga bag'ishlangan qator kitoblar yaratilgan. N.Komilov Sayyid Abdulqodir Geloniy (Jeloniy) va Aziziddin Nasafiy (XII asr), Shayxi Kabir Muhyiddin ibn al Arabiy (1165-1240 yy.), Abdulkarim Jili (1417 yilda vafot etgan) kabi allomalar tomonidan bu tushuncha muomalaga kiritilgani, Shayx Aziziddin Nasafiy esa komil inson nazariyotchisi sifatida tarixda qolgani haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Demak, Aziziddin Nasafiy bu fikri bilan komillikning mezoni sifatida ikki narsani: birinchisi, hamida axloq, ya'ni mo'min-musulmon, solih inson bo'lish, ikkinchisi, o'z-o'zini anglash deb qaraydi. Bu ta'limoti bilan Aziziddin Nasafiy ham axloqli, mo'min- musulmon, ham o'zligini tanigan insonlar haqiqiy komil inson degan g'oyani ilgari surgan. Lekin bu ta'riflar nisbiy bo'lib, barcha allomalar ham ruhiy-ma'naviy qudrat, aql-u zakovat, yaxshi xislatlar jamuljami ifodalangan insonni, shunga intilib yashagan ulug' bir zotni Komil inson deb tushunishgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda o'z prinsiplarini bayon etadi: A.Jomiyning «Bahoriston», Xiradiomai Iskanlariy», «Tuhfatul ahror», «Silsilatuz zahob» va boshqa asarlarida ilm-mahrifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.



Buyuk qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) pedagogik ijodida inson va uning baxt soadati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. Olim "tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan".

Beruniy "Hindiston" asarida maktab bolalarining taxtalarini qora qilib, eniga emas, bo'yiga oq narsa bilan chapdan o'nga qarab yozadilar: goyo shoir mana shu she'rni hindlarga qarata aytganidek;

"Qog'ozi ko'mirdan bo'lib, qalami oq yozayotgan kitobni ko'ring. U qorong'u kecha yuziga yorug' kunduzni yozib, uni yoritmoqchi bo'ladi, lekin tugal yorit olmaydi."

Ulug' vatandoshimiz **Abu Nasr Forobiy** inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tugilishida muvjud, lekin aqliy bilim, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy sifatlari xarakteri, dini, urf-odatlar, malumoti boshqa tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi. Inson o'z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so'ngida mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi ilmga borib yetadi.

Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida mudarrisning "so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan, osonlik bilan o'zlashtira olsin" deydi.

Yosh avladni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishida tarbiya muhim rol o'ynaydi. Uning shakllanishi faoliyatdan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli faoliyat shaxsning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat – o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim- tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim- tarbiya





shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

Tarbiya insonning o'z oilasi, jamoasi, jamiyatda muhim asos hisoblanadi, chunki hech kim o'z onasidan «yomon» bo'lib tug'ilmaydi. Tug'ilgandan keyin ham hech bir ota-ona o'z bolasini yomon bo'lishini xohlamaydi, balki uni ardoqlab o'stiradi.

Har qanday yomonlik, gunoh ishlar tarbiyasizlikdan, bilimsizlikdan, ma'naviy qashshoqlikdan kelib chiqadi.

Shaxs kamolotida tarbiyaning o'rni haqida Demokritning quyidagi fikri qimmatlidir: «Insonni inson qilib o'stiruvchi bu tarbiyadir».

Demak, to'g'ri tarbiya insonni ilimli, bilimli, ongli, madaniyatli, ma'rifatli va hattoki komil inson darajasigacha yuksaltiradi.

Inson tarbiya orqali komillik sari «ko'kka bo'y cho'zadi» va unda eng yaxshi «yo'ldosh» hayotda olinadigan ibrat-namuna va kitob mutoala qilish orqali bilimli, ma'rifatli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Milliy istiqlol g'oyasi; asosiy tushuncha va tamoyillar- T; o'zbekiston, 2001-80-B.
2. Abdurazzoqov A. A ``Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации``; Aftoref.dis. ``kand. Filos. Nauk-T; 1995, 24-b
3. Abduraxmonov .A ``Saodatga eltuvchi bilim`` T; Movaraunnahr, 2002-72-b.
4. Azizxodjayeva .N. N ; ``Педагогическое мастерствою`` T; ТГПУ или Низоми ; 2003-192-b.
5. Begmatov .A `` Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizmning yaratilishi- T; Sharq 2000-94-b.
6. Gulmetov .E, Qobiljonova .T , Ernazarov .Sh, Mavro'zov. A `` Madaniyatshunoslik``- T; ``YAJBAT``markazi, 2000-179-b